Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2026-yilning yanvar-mart oylarida Jizzax viloyati bo‘yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o‘rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 11 067,8 mlrd. so‘mni tashkil etdi va 2025-yilning yanvar-mart oylari bilan taqqoslaganda 7,7 % ga o‘sdi.

YAHM deflyator indeksi 2025-yilning yanvar-mart oylari narxlariga nisbatan 111,3 % ni tashkil qildi.

O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha YAIMning shakllanishida Jizzax viloyatining qo‘shgan hissasi 2,5 % ni tashkil etdi.

## 2026- yilning yanvar-mart oylarida Jizzax viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot






YAHM o‘sish sur’ati
YAHM hajmi
YAHM deflyator indeksi
YAIMga qo‘shgan hissasi

## 2026- yilning yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o‘sish sur’atlari

| | *Mlrd. so‘m* | | ***O‘sish sur’atlari,*** *o‘tgan yilning mos davriga nisbatan % da* |
|---|---|---|---|
| | ***2025- yil*** | ***2026- yil*** | |
| **I. YAHM, jami** | **9 240,4** | **11 067,8** | **107,7** |
| *shu jumladan:* | | | |
| tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati | 8 987,5 | 10 741,7 | 107,6 |
| mahsulotlarga sof soliqlar | 252,9 | 326,1 | 110,9 |
| **II. Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati** | **8 987,5** | **10 741,7** | **107,6** |
| **qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi** | **2 131,5** | **2 544,9** | **104,2** |
| **sanoat (qurilishni qo‘shgan holda)** | **2 464,3** | **3 122,8** | **110,3** |
| sanoat | 1 885,4 | 2 405,0 | 107,8 |
| qurilish | 578,9 | 717,8 | 118,6 |
| **xizmatlar** | **4 391,7** | **5 074,0** | **107,7** |
| savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar | 1 607,0 | 1 902,4 | 112,5 |
| tashish va saqlash, axborot va aloqa | 466,7 | 566,0 | 114,3 |
| boshqa xizmat tarmoqlari | 2 318,0 | 2 605,6 | 103,0 |

# YALPI HUDUDIY MAHSULOTNI ISHLAB CHIQARISH



Quyida keltirilgan infografikada ko‘rinib turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 7 049,1 ming so‘mni tashkil etdi va bu ko‘rsatkich o‘tgan yilga nisbatan 5,7 % ga yuqoridir.

## 2026- yilning yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi

*(ming so‘mda)*

5 996,7 — 2025- yil

7 049,1 — 2026- yil

## 2026- yilning yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHMning o‘sish sur’atlari

*(o‘tgan yilning mos davriga nisbatan % hisobida)*

2025- yil — 105,3 %

2026 yil — 105,7 %

## Yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YAHM tarkibi

*(jamiga nisbatan % da)*

| | *2025- yil* | *2026- yil* |
|---|---|---|
| **I. YAHM, jami** | **100,0** | **100,0** |
| *shu jumladan:* | | |
| tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati | 97,3 | 97,1 |
| mahsulotlarga sof soliqlar | 2,7 | 2,9 |
| **II. Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati** | **100,0** | **100,0** |
| **qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi** | **23,7** | **23,7** |
| **sanoat (qurilishni qo‘shgan holda)** | **27,4** | **29,1** |
| sanoat | 21,0 | 22,4 |
| qurilish | 6,4 | 6,7 |
| **xizmatlar** | **48,9** | **47,2** |
| savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar | 17,9 | 17,7 |
| tashish va saqlash, axborot va aloqa | 5,2 | 5,3 |
| boshqa xizmat tarmoqlari | 25,8 | 24,2 |

2026- yilning yanvar-mart oylarida hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 97,1 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 2,9 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining YAHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi 23,7 % ni, sanoat tarmog‘i 22,4 % ni, qurilish 6,7 % ni va xizmatlar sohasi 47,2 % ni tashkil qildi.

## Yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlaribo‘yicha YAHM tarkibi *(jamiga nisbatan % da)*







Yalpi qo‘shilgan qiymat    Mahsulotlarga sof soliqlar

YAHM o‘sishiga qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi tarmog‘i 1,0 f.p. (2025- yilning yanvar-martida – 0,9 f.p.), sanoat tarmog‘i – 1,6 f.p. (2,4 f.p.), qurilish tarmog‘i – 1,2 f.p. (0,8 f.p.) va xizmat ko‘rsatish sohasi – 3,6 f.p. (2,9 f.p.) ijobiy hissa qo‘shdi.

Mahsulotlarga sof soliqlarning kamayishi hisobiga YAHM 0,4 f.p. dan 0,3 f.p.ga tushdi.

## 2026- yilning yanvar-mart oylarida YAHM o‘sishida tarmoqlarning hissasi
*(jamiga nisbatan % da)*



# YALPI HUDUDIY MAHSULOTNI ISHLAB CHIQARISH



2026- yilning yanvar-mart oylarida YAHMning o‘sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o‘sish sur’atlari bilan bog‘liqdir. O‘sish sur’atlari qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida 104,2 % (YAHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi – 23,7 %), sanoatda – 107,8 % (22,4 %), qurilishda – 118,6 % (6,7 %), xizmatlar sohasida – 107,7 % ni (47,2 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o‘sish sur’atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlarda 112,5 % (17,7 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 114,3 % (5,3 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 103,0 % dan (24,2 %) iborat bo‘ldi.

## Yanvar-mart oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha mutlaq o‘sish sur’atlari

*(o‘tgan yilning mos davriga nisbatan % da)*

| 2025- y. | | 2026- y. |
|---|---|---|
| 7,4 % | YAHM | 7,7 % |
| 3,4 % | Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi | 4,2 % |
| 12,0 % | Sanoat | 7,8 % |
| 11,0 % | Qurilish | 18,6 % |
| 6,5 % | Xizmatlar | 7,7 % |

2026- yilning yanvar-mart oylarida YAHM deflyatori indeksi 2025- yilning yanvar-mart oylaridagi narxlarga nisbatan 111,3 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko’rsatkichlari sanoat – 118,3 % va qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi sohasida – 114,6 % qayd etildi.

**Yanvar-mart oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo’yicha deflyator indeksi**
*(o‘tgan yilning mos davriga nisbatan % da)*

| | 2025- y. | 2026- y. |
|---|---|---|
| YAHM | 112,3 % | 111,3 % |
| Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi | 113,7 % | 114,6 % |
| Sanoat | 119,2 % | 118,3 % |
| Qurilish | 102,6 % | 104,6 % |
| Xizmatlar | 110,6 % | 107,3 % |

# YALPI HUDUDIY MAHSULOTNI ISHLAB CHIQARISH



2026- yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik 6 935,0 mlrd. so‘mni tashkil etdi (2025- yilning yanvar-mart oylarida – 5 859,9 mlrd. so‘m). YAHMdagi ulushi 64,6 % ni (2025- yilning yanvar-mart oylarida – 65,2 %) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o‘tgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bog‘liq.

## Yanvar-mart oylarida kichik biznesning hajmi va YAHMdagi ulushi

*(jamiga nisbatan %da)*



| | Hajmi, mlrd.so‘m | Ulushi, % da |
|---|---|---|
| 2025- yil | 5 859,9 | 65,2 % |
| 2026- yil | 6 935,0 | 64,6 % |

